



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

UYISHMAGAN YOSHLARNING MOTIVATSION SOHASIGA TASIR ETUVCHI OMILLAR

Baxromov X X

O'qituvchi TTToshkent davlat tibbiyot universiteti hushnodbahromov@gmail.com

Annotasiya: Maqola uyishmagan yoshlarning motivatsion sohasiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tahlil qiladi. Yoshlar o'rtasida uyishmaslik, o'z-o'zini anglash va hayotiy maqsadlarni belgilash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Maqolada ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy omillar, shuningdek, oilaviy muhit va ta'lim tizimining ahamiyati ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari yoshlarning motivatsiyasini oshirish va ularni ijtimoiy hayotga faol jalb qilish uchun zarur bo'lgan strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Аннотаци: Статья анализирует основные факторы, влияющие на мотивационную сферу молодежи, не имеющей жилья. Безработица среди молодежи играет важную роль в процессе самопознания и определения жизненных целей. В статье рассматриваются социальные, психологические и экономические факторы, а также значение семейной среды и образовательной системы. Результаты исследования помогут разработать стратегии, необходимые для повышения мотивации молодежи и активного вовлечения их в социальную жизнь.

Ключевые слова: Неорганизованный молодежь, мотивационные факторы, самомотивация, социальные влияния, психологические факторы, духовные ценности, дружба и влияние группы, постановка целей, проблемы молодежи.

Annotation: The article analyzes the key factors influencing the motivational sphere of disorganized youth. This article plays a significant role in the process of self-awareness and the establishment of life goals among young people. The article examines social, psychological, and economic factors, as well as the importance of family environment and the education system. The research findings will assist in developing strategies necessary to enhance youth motivation and actively engage them in social life.

Key words: Disorganized youth, motivational factors, self-motivation, social influences, psychological factors, spiritual values, friendship and group influences, goal setting, youth problems.

KIRISH

Bugungi kunda uyishmagan yoshlar jamiyatning muhim qismini tashkil etmoqda, ammo ko'p hollarda ular o'zlariga to'g'ri yo'nalishni topishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Uyishmagan yoshlar, odatda, o'qishda, ishda va boshqa sohalarda o'zini jamiyatda faol ko'rsata olmaydigan yoshlar sifatida aniqlanadi. Ularning o'ziga ishonchi va kelajakdagi maqsadlari barqaror bo'lmagani uchun motivatsiya darajalari past bo'lishi mumkin.

Shu sababli, yoshlarning motivatsiya darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish va bu borada tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Uyishmagan yoshlarning motivatsiyasini oshirish nafaqat ularning individual



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

hayoti uchun, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun ham muhimdir. Motivatsiya – bu shaxsni ma'lum bir faoliyatga yo'naltiruvchi ichki yoki tashqi kuch bo'lib, yoshlarning kelajakka nisbatan qarashlarini shakllantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Motivatsiya orqali yoshlar o'zlarini rivojlantirish, kasb o'rganish, ta'lim olish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish kabi faoliyatlarga sabab bo'ladi.[4,68-78]

Asosiy qism. Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda yoshlar tushunchasi keng qo'llanilishiga qaramay, ushbu atamaning yagona universal izohi ishlab chiqilmagan. Asosan adabiyotlarda: «Yoshlar – muayyan yosh xususiyatiga ko'ra boshqalardan ajralib turadigan ijtimoiy maqom va ijtimoiy tizim, madaniyat, ijtimoiylashuvning faol subyekti bo'lib, ularning yosh chegaralari asosida aniqlanadigan ijtimoiy-demografik guruh tushuniladi» ta'kidlab o'tilgan. Ushbu ta'rif birinchi navbatda bu tushunchani yosh chegaralari nuqtai-nazardan baholashni talab qiladi.

Bugungi kunga qadar umuminng va funksional yondashuv nuqtai-nazardan «yoshlar» tushunchasiga jamoatni umumiy tizimga mos keladigan yagona ilmiy ta'rifi yo'q, uning hatto falsafiy mazmun-mohiyati ham yetarli darajada ochib berilmagan. Yoshlik deganda, insonlarning bolalik davridagi hayoti, ko'pincha bolalik va balog'at (yetuklik) davridagi vaqt tushuniladi. Shuningdek, yoshlarga xos bo'lgan kuch-g'ayrat, tezlik, jo'shqinlik, erkinlik va ijodkorlik ruhi kabi xislatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Yoshlar orasida hozirda paydo bo'lgan «uyishmagan yoshlar» ijtimoiy qatlami tushunchasining aniq bir ta'rifi yo'q. Turli fan vakillari o'zlarining tadqiqot yo'nalishidan kelib chiqib bu tushunchaga ta'rif bermoqdalar, lekin bu ta'riflar o'zini to'laqulli ilmiy asosiga ega emas.

Uyishmagan yoshlar deb – o'z xatti-harakati bilan davlatga, jamiyatga, oilasiga, shaxslararo va o'zaro munosabatlarda yetarli darajada foydali koeffitsientni bermaydigan, umumiy hayotga be'etibor, befarq yoshlarga nisbatan aytiladi. «Uyishmagan yoshlar» – o'z maqsadini individual tarzda, davlat va jamiyatda yaratilgan imkoniyatlardan foydalanmasdan, primitiv, nafaol tarzda samarasiz amalga oshirayotgan, hech qayerda o'qimaydigan, ishlamaydigan yoshlar guruhini anglatadi.

Bu toifadagi yoshlar o'z maqsadini davlat va jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirish ko'nikmasiga ega bo'lmaydi. Uyishmagan yoshlarning motivatsiya darajasiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarni ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, ekologik va shaxsiy omillar sifatida tasniflash mumkin.[3,176]

Ijtimoiy omillar. Oila muhiti Oilaning qo'llab-quvvatlashi, ijtimoiy-iqtisodiy holati va berilayotgan tarbiya yoshlarning motivatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi qadriyatlar va qo'llab-quvvatlash darajasi yuqori bo'lgan yoshlar o'z maqsadlariga erishishga ko'proq intilishadi. Do'stlar va ijtimoiy aloqa: Ijtimoiy guruhlarining, masalan, tengdoshlar va do'stlarning yoshlar motivatsiyasiga kuchli ta'siri mavjud. Agar do'stlar jamiyatda faol va barqaror mavqega ega bo'lsa, ular boshqalarni ham o'zlaridan o'rnak olishga undaydi. Mahalliy jamoa va madaniy qadriyatlar Jamiyatda qabul qilingan madaniy qadriyatlar, yoshlar hayotida muhim o'rin tutuvchi qadriyatlar va jamiyatdagi munosabatlar ham motivatsiyaga ta'sir qiladi.[8]



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Iqtisodiy omillar. Oilaviy daromad va iqtisodiy imkoniyatlar: Iqtisodiy jihatdan qulay sharoitlarga ega yoshlar ta'lim olish va kasb-hunar o'rganish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ularning motivatsiyasini oshiradi. Mintaqaviy iqtisodiy vaziyat: Yoshlar yashayotgan hududdagi iqtisodiy sharoitlar va ish o'rinlarining mavjudligi ham motivatsiyaga ta'sir qiladi. Ish topish imkoniyati yuqori bo'lgan joylarda yoshlar o'zlarini rivojlantirishga ko'proq qiziqadi.[6]

Psixologik omillar. O'z-o'zini anglash va o'ziga ishonch: O'ziga bo'lgan ishonch va maqsadning aniqligi yoshlarni rivojlanishga undaydi. Past ishonch esa ko'pincha demotivatsiyaga olib keladi. Stress va ruhiy barqarorlik Stressni boshqarish qobiliyati va ruhiy barqarorlik motivatsiyaga sezilarli ta'sir qiladi. Moliyaviy yoki ijtimoiy qiyinchiliklarga duch kelgan yoshlar ko'pincha motivatsiyadan mahrum bo'lishadi.[5,370-396]

Ekologik va yashash muhiti omillari. Hududdagi imkoniyatlar va sharoitlar: Yoshlar yashayotgan hududdagi ta'lim va ish imkoniyatlari, resurslar ham motivatsiyaga ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi. Shaharda yashovchi yoshlar qishloqdagilarga nisbatan ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lishadi. Tashqi sharoitlar va infratuzilma. Yashash muhiti, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari, jamoat joylarining mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari motivatsiyaga kuchli ta'sir ko'rsatadi.[7]

Shaxsiy rivojlanish va ta'lim olish imkoniyatlari ta'lim sifati va o'quv muhit. Ta'lim tizimining rivojlanganligi va o'quv jarayonida motivatsiyani oshiruvchi usullar qo'llanilishi yoshlarning maqsad sari intilishlarini kuchaytiradi. Shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari: Yoshlarning o'z qiziqishlariga mos bo'lgan kurslar, treninglar va qo'shimcha bilim olish imkoniyatlari ular uchun motivatsiyani oshiruvchi omillar sanaladi. Uyishmagan yoshlar uchun motivatsion strategiyalar. Uyishmagan yoshlarning motivatsiyasini oshirishda quyidagi strategiyalar samarali bo'lishi mumkin.[9, 491-510]

Kasb-hunar o'rgatish kurslari va o'quv dasturlari: Yoshlarni kasb-hunar o'rganishga undash va ularni o'qitish motivatsiya darajasini oshirishning eng samarali yo'llaridan biridir. Shu orqali ular o'zlari uchun barqaror ish o'rinlari topishga intilishadi. Psixologik qo'llab-quvvatlash va motivatsion dasturlar: Yoshlar bilan ishlaydigan psixologik markazlar, murabbiylar va konsultantlar yordamida ularning maqsadlarini aniqlashga yordam berish, o'ziga ishonchni kuchaytirish va motivatsion treninglar o'tkazish samarali natijalar beradi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari:

Mahalla, jamoat tashkilotlari va davlat tomonidan uyishmagan yoshlarni jamiyatga qayta jalb etish dasturlari orqali motivatsiyani oshirish mumkin. Ta'lim tizimida qo'shimcha imkoniyatlar yaratish: Uyishmagan yoshlarni ta'lim tizimiga qaytarish uchun yangi o'quv kurslari va dasturlar tashkil etish muhimdir. Bu orqali ular yangi bilim va ko'nikmalarni egallashga undaladi.

Natijalar va muhokamalar. Yuqoridagi muhokamalarga to'xtalsak va o'zganadigan bo'lsak M.M.Jabborovning takidlashicha uyishmagan yoshlarning ijtimoiylashuvi va motivatsion ehtiyojlarini qondirishda ma'naviy va axloqiy qadriyatlar muhim omil hisoblanadi. U yoshlarning shaxsiy rivojlanishi va ular orasida ijtimoiy mas'uliyatni



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

kuchaytirish uchun oilaviy va ta'lim tizimining ahamiyatini ta'kidlaydi. Jabborovning tadqiqotlariga ko'ra, yoshlarni ijtimoiy hayotga jalb qilishda va ularning motivatsiyasini oshirishda milliy qadriyatlarni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.[1,7-8]

A.K.Rasulov uyishmagan yoshlar orasida ijtimoiy faollik va mas'uliyatni oshirishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning fikricha, yoshlar jamiyat hayotida faol ishtirok etgan sari, ularda o'ziga bo'lgan ishonch va kelajakka intilish hissi kuchayadi. U shuningdek, yoshlar motivatsiyasini oshirishda jamoat tashkilotlari va mahalla tizimining o'rnini qayd etadi, chunki ular yoshlarni jamiyat bilan yaqinlashtirishda asosiy ko'makchi hisoblanadi deb takidlaydi.[2,40-42]

Jamiyatdagi ijtimoiy uyushmagan yoshlarning xulq-atvori haqida gapirsak, bu vaziyatga ko'ra bir-biri bilan bevosita aloqada bo'lgan va ruhiy infektsiyaga asoslangan ma'lum ta'sirlarga bir xil munosabatda bo'lgan odamlarning vaqtinchalik uyushmagan faolligi deyish mumkin. Uyushmagan yoshlarning taqlid faolligi keskin kuchayadi va ularning harakatlarining mumkin bo'lgan oqibatlarini ko'ra olish kamayadi. Ular o'z harakatlarining qonuniyligini bo'rttirib ko'rsatadilar, alarning tanqidiy bahosi pasayadi, mas'uliyat hissi xiralashadi, anonimlik tuyg'usi hukmronlik qiladi. Muayyan vaziyatdan kelib chiqqan umumiy hissiy stress fonida, olomonga kirgan yoshlar tezda ruhiy infektsiyaga duchor bo'lishadi. Uyushmagan yoshlar spontan xatti-harakati ba'zi hollarda o'z-o'zidan paydo bo'ladigan ma'lumotlar - mish-mishlar bilan qo'zg'atiladi. Mish-mishlar ommaviy axborot vositalari tomonidan o'zlashtirilmagan voqealarni qamrab oladi, bu shaxslararo muloqotning o'ziga xos uri bo'lib, ularning mazmuni ma'lum bir vaziyatni kutish va noto'g'ri qarashlarga bog'liq Uyushmagan yoshlar xatti-harakatlarini tartibga solish mexanizmi - kollektiv ongsizlik - psixanalitik Karl Gustav Yangning g'oyalariga ko'ra, insoniyatning instinktiv tajribasini o'z ichiga olgan ruhiy hodisalardir. Umumiy xulq-atvor naqshlari, transpersonal xulq-atvor shakllari odamlarning individual ongini bostiradi va genetik jihatdan arxaik xatti-harakatlar reaktsiyalarini hosil qiladi.

Xulosa. Yoshlar – har qanday jamiyatning kelajagi va rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Shunga qaramay, uyishmagan yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik jihatdan murakkab toifani tashkil qiladi. Ularning faoliyatga bo'lgan qiziqish va motivatsiyasi past bo'lib, jamiyat hayotida o'z o'rnini topishlari uchun turli to'siqlarga duch keladilar. Ushbu maqolada uyishmagan yoshlarning motivatsion ehtiyojlari, ularga ta'sir qiluvchi omillar va ularni jamiyatga integratsiya qilish usullari o'rganildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, uyishmagan yoshlarning motivatsiya darajasini oshirish uchun ta'lim tizimi, psixologik maslahat va mehnat bozoridagi imkoniyatlar, shuningdek, davlat va jamiyat tomonidan ko'rsatiladigan yordam katta ahamiyatga ega. Uyishmagan yoshlarni jamiyatning faol a'zolari sifatida shakllantirish ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishga yordam beradi. Motivatsion dasturlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi orqali ularni davlat va jamiyat manfaatlariga yo'naltirish, o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun rag'batlantirish mumkin. Shu tariqa uyishmagan yoshlarning



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatga jalb qilinishi nafaqat ularning shaxsiy taraqqiyotiga, balki jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotiga ham xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. Jabborov M.M. "Yoshlarning ijtimoilashuvi va ma'naviy -axloqiy qadiryatlari" 1-bob (7,8)
2. Rasulov A.K. "Yoshlar va Jamiyat: Ijtimoiy faollik va ma'suliyat" 2-bob (40,42)
3. Кирпичников В.В. Проблемы формирования патриотических ценностей в массовом сознании российской молодежи: диссертация... кандидата философских наук. – Москва, 2016. – 176 с.
4. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). "Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being." *American Psychologist*, 55(1), 68–78.
5. Maslow, A. H. (1943). "A Theory of Human Motivation." *Psychological Review*, 50(4), 370-396.
6. Bandura, A. (1997). *Self-efficacy: The Exercise of Control*. W.H. Freeman and Company.
7. Bourdieu, P. (1986). "The forms of capital." In J. Richardson (Ed.), *Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education* (pp. 241–258).
8. Becker, G. S. (1964). *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*
9. Simpson, M. & Ferguson, G. (2012). "Youth at the Margins: Participation and Social Exclusion in Latin America." *Journal of Youth Studies*, 15(4), 491-510.